



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 23-noyabr

670-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyati hokimining 2024-yil 20-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Termit va boshqa hashoratlardan zararlangan uy-joylarni aniqlash va yashash uchun yaroqsiz deb topish bo‘yicha davlat xizmatini ko‘rsatishning ma‘muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 4-noyabrdagi 734-son qarori ijrosi haqida”gi 563-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Termit va boshqa hashoratlardan zararlangan uy-joylarni aniqlash va yashash uchun yaroqsiz deb topish bo‘yicha davlat xizmatini ko‘rsatishning ma‘muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 4-noyabrdagi 734-son qarori va Namangan viloyat hokimining 2024-yil 20-noyabrdagi 563-6-0-Q/24-son qarorini tumanda ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

### **QAROR QILAMAN:**

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 20-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Shaharlar va boshqa aholi punktlari ko‘chalari hamda ichki xo‘jalik yo‘llari infratuzilmasini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2024-yil 4-noyabrdagi 734-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 563-6-0-Q/24-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

quyidagilarni nazarda tutuvchi Termit va boshqa hashoratlardan zararlangan uy-joylarni aniqlash va yashash uchun yaroqsiz deb topish bo‘yicha davlat xizmatini ko‘rsatishning ma‘muriy reglamenti ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi:

termit va boshqa hashoratlardan zararlangan uy-joylarni aniqlash va yashash uchun yaroqsiz deb topish bo‘yicha murojaat qilish;

termit va boshqa hashoratlardan zararlangan uy-joylarni aniqlash va yashash uchun yaroqsiz deb topish tartibi;

termit va boshqa hashoratlardan zararlangan uy-joylarni yashash uchun yaroqsiz deb topish to‘g‘risidagi xulosalarni rasmiylashtirish;

belgilanishicha, ushbu qaror bilan tasdiqlangan ma‘muriy reglamentga muvofiq davlat xizmati 2025-yil 1-yanvardan boshlab tumanlar (shaharlar) hokimliklari tomonidan tuziladigan Termit va boshqa hashoratlardan zararlangan uy-joylarni aniqlash komissiyasi tomonidan Davlat xizmatlari markazlari va O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (keyingi o‘rinlarda - YIDXP) orqali ko‘rsatiladi.

Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi Raqamli texnologiyalar vazirligi hamda Adliya vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda:

ushbu qaror bilan tasdiqlangan Reglamentga muvofiq davlat xizmatlarini ko‘rsatish Davlat xizmatlari markazlari va YIDXP orqali joriy etilishini ta‘minlashi;

YIDXPda davlat xizmatlari ko‘rsatilishining har bir bosqichida murojaatlar ko‘rib chiqilishini kuzatib borish imkoniyatini yaratishi;

Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi:

bir oy muddatda Sog‘liqni saqlash vazirligi hamda Fanlar akademiyasi bilan birgalikda termit va boshqa hashoratlardan zararlangan uy-joylarni yashash uchun yaroqsiz deb topish bo‘yicha tegishli texnik talablarni ishlab chiqishi;

ikki oy muddatda manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda o‘zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni ushbu qarorga muvofiqlashtirishi e‘tiborga olinsin.

3. 2025-yil 1-yanvardan “Termit va boshqa hashoratlardan zararlangan uy-joylarni aniqlash komissiyasi” tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi (A.Xudoyberdiyev), tuman adliya bo‘limi (A.Qodirov), tegishli tashkilotlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 4-noyabrdagi 734-son qarori talablari asosida ish tashkil etsinlar.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari X.Boylarov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**

Mingbuloq tuman hokimining  
2024-yil 23-noyabrdagi  
670-6-81-Q/24-son qaroriga  
1-ilova

**Termit va boshqa hashoratlardan zararlangan uy-joylarni aniqlash komissiyasi**

**TARKIBI**

1	X.Boylarov	-	tuman hokimining uy-joy, kommunal xizmat ko'rsatish va obodonlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari, komissiya raisi
2	Lavozimiga ko'ra	-	Fanlar akademiyasining Zoologiya instituti huzuridagi "Respublika termitlarga qarshi kurashish ilmiy ishlab-chiqarish markazi" davlat muassasasi vakili
3	H.Hudoyberdiyev	-	Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining tuman bo'linmasi boshligi
4	D.Mamajonov	-	tuman favqulodda vaziyatlar bo'limi boshlig'i
5	Lavozimiga ko'ra	-	tuman kadastrlar palatasi bo'limi boshlig'i
6	A.Hudoyberdiyev	-	tuman qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi boshlig'i, komissiya kotibi